

BARKAMOL SHAXS TARBIYALASH MILLIY TARBIYA IMKONIYATLARI

Abdulloyeva Hulkar Zokirovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol shaxs tarbiyalashda milliy tarbiya imkoniyatlari tahlil qilingan. Barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ahamiyati yoritilgan. Milliy tarbiya yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik va mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada milliy tarbiyaning zamonaviy ta'lim jarayonlari bilan integratsiyasi, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy ruhiyatni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. Barkamol shaxs, milliy tarbiya, qadriyatlar, tarbiya jarayoni, vatanparvarlik, innovatsion yondashuv, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'analar, ijtimoiy rivojlanish, madaniy meros.

Ta'limning milliy yo'naltirilganligi O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tamoyillaridan biridir. U ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlari bilan o'zviy uyg'unligini O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muxim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarix va madaniyatini xurmatlashga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimini taqazo qiladi. Ushbu davlat buyurtmasini mukammal bajarmoq uchun uzluksiz ta'lim tizimi talablari nuqtai nazaridan islox qilinmoqda. Chunki bu O'zbekiston uchun muxim strategik, siyosiy zaruratdir.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va zamonaviylashtirish umu'minsoniy extiyoj xamdir. Sobiq sho'rolar davrida ijtimoiy ongda zamonaviylik-milliylik tushunchalari orasida sivilizatsiya-ekzotika shaklidagi sun'iy antiteza xosil qilindi. Natijada milliylikni ajdodlardan avlodlarga boyitib yetkazuvchi jarayon-milliy tarbiyaning tobora zaiflashuvi yuzaga keldi. Mafkuraviy maqsadlar ostida rang-barang milliy qadriyatlarni o'zaro aloqada yuksaltirish emas, balki bir xillashtirish xarakati rag'batlantirildi. Tarbiyani sotsialistik baynalmillalashtirish siyosati va amaliyotining asoratlaridan qutulish istagi, bugun xalqlarning o'z milliy g'ururini tiklash, ajdodlar merosini o'rganish kabi extiyojlarida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan mustaqillikni qo'lga kiritgan millatlarning qadimgi milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga bo'lgan extiyoji tabiiy, qonuniydir. Bu esa milliy tarbiya masalasini ilmiy talqin qilishni ma'rifiy zarurat maqomiga ko'taradi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Har bir mamlakatning o'ziga xos tarbiyaviy tizimi uning mustaqillik, milliy taraqqiyot yo'lining pedagogik intikosidir. O'tgan asrning oxiri va XXI asr boshlarida MDH mamlakatlari ham, jahonning sobiq mustamlaka mamlakatlari ham o'z taqdirida ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning uch yo'lga duch keldilar. Dunyoviy tajriba bu yo'llarni quyidagicha tariflaydi.

- milliy fundamentalizm - o'tmishdagidek yashash,
- milliy modernizm - milliy zamonaviylashuv,
- milliy reformizm - boshqacha (masalan, ovro'pacha, amerikacha...) shakl va mazmun kasb etish⁸.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, O'zbek xalqining bundan buyon millat sifatidagi hayotini muvaffaqiyatli davom ettirishi, o'zligini saqlab qolib, jahon sivilizatsiyasida namoyish qilishi uchun qaysi yo'lni tanlagan ma'qul.

Jamiyat ma'naviy inqirozga yuz tutgach, millatni millat qiladigan narsalar butunlay toptalgan vaziyatda bu yo'l milliy-madaniy taraqqiyotning modernistik tarzi milliy zamonaviylashuvdir. Milliy davlatchilik, mustaqillikni mustahkamlashning pedagogik kafolatini ham aynan shu yo'l milliy istiqlolli tarbiya g'oyasi ta'minlashga qodir.

Milliy-zamonaviylashuv yo'lidan borish BMTning teng xuquqli a'zosi O'zbekistonning Inson xuquqlari Deklaratsiyasida har bir kishining ona tilidan foydalanish, ona tilida ta'lim olish, milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish xuquqi ta'minlanadi, - deb ta'kidlangan 4-moddasini amalda tatbiq etishga kirishganligidan ham dalolat beradi.

YUNESKO amaliy tamoyillarida o'z madaniyatiga ega bo'lmagan xalq yo'q; har bir madaniyat xurmat qilinishi va saqlab qolinishi kerak bo'lgan qadr - qiymatga ega; o'z madaniyatini rivojlantirish har bir xalqning xuquqi va burchidir deyiladi. Demak, qo'lga kiritilgan mustaqillik barcha millatlar kabi o'zbek xalqiga ham milliy o'zlik, axloq, ma'naviyatni tiklash xuquqini, imkoniyatini berdi. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, bizningcha, shu tarixiy imkoniyatdan yosh avlodni tarbiyalashda qanchalik samarali foydalana olishimizga bog'liq.

Davlat bosh islohatchi bo'lgan mustaqil O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning milliy asosga qurilishining eng oliy vakolati uning Konstitutsiyasida himoyaga olingan. Konstitutsiyaning mohiyati ochiqlik, hamkorlik, milliy madaniyatlar ravnaqi, millatlararo inoqlik, dinlararo bag'rikenglik ruhiga ega. O'zbekistonda milliy madaniyatlarni tiklash, ravnaq toptirish yo'lida milliy - madaniy markazlar tashqil etilganligi, bu markazlar faoliyati matbuot, radio va televideniya keng yoritilayotganligi va boshqa ko'plab misollar mustaqil O'zbekiston milliy munosabatlarini takomillashtirishning yangi-milliylikni tiklash, boyitish orqali umummilliy va umuminsoniy totuvlikka erishish yo'lini tanlaganini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, milliy - madaniy birlik, o'zlikni saqlab qolishga da'vat O'zbekistondan chiqishi tabiiy, adolatlidir va zinhor millatchilik emas. Chunki o'zbek milliy madaniyati, tili an'analarini xaqqoniy ravishda tiklash va rivojlantirish aholining boshqa milliy guruhlaridagi mana shunday jarayonlar xisobiga bo'lmasligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'z taqdiriga befarq bo'lmagan qaysi jamiyatda ijtimoiy islohot zarurati yuzaga kelsa, o'sha jamiyatda maktabga, tarbiyaga e'tibor keskin kuchayib, tarbiya - jamiyatni takomillashtirishning bosh vositasi, deya tan olinadi. Tarix bu kabi misollarga boy. Ana shu nuqtai nazardan mustaqil O'zbekiston maktablari qarshisida turgan vazifa dolzarb va murakkabdir. Chunki zamonaviy maktab o'zbek xalqining eng go'zal fazilatlaridan bo'lgan milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, vatanparvarlik, milliy odob, sof vijdon, milliy g'oyani o'z ko'rsatkichi qilib olib, yagona Vatan - O'zbekistonning dunyo miqyosidagi sharafiga xizmat qila oluvchi o'g'il - qizlarning yangi avlodini tarbiyalab yetishtirishi lozim. Bu milliy - istiqbolli buyurtma kompleks tarzda - oila, bolalar bog'chalari, maktab, mahalla, turar joylarda, maktabdan tashqari muassasalar hamkorligida olib boriluvchi milliy tarbiya jarayonidagina amalga oshirilishi mumkin.

Milliy tarbiya tushunchasi ko'p qirrali tushunchadir.

Uning:

- Milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;
- umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;
- xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YuNESKO tamoyili) vositasi;
- O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun maqsad, vazifalarining tarkibiy qismi;
- turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai;
- o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;
- millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo'li va vositasi;
- ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti;
- insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li;
- ijtimoiy - ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik ob'ekti va vositasi;
- o'quvchilarda milliy (avto va getero) stereo tiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy boyitish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi.

Antropologlarning shahodat berishlaricha, odamning tashqi ko'rinishi kechki paleolit - kromanyonlar davridan buyon o'zgarasdan kelmoqda. Bu fikrning zamonaviy fanlar tomonidan tasdiqlanganligi odamning biologik evolyusiyasi tugallanganligini bildiradi. Odamdagi evolyusion rivojlanishning yakunlanishi esa undagi madaniy rivojlanishni boshlab beradi. Odamda oliy taraqqiy etgan turlarga xos bo'lgan emotsional - instinktiv xususiyatlar genetik meros sifatida mavjud bo'lib, bu xususiyatlarni chaqaloq dunyoga kelganida, uning rivojlanishining ilk oylarida kuzatish mumkin. Ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) esa odam mohiyatini go'daklikdan boshlab kamolotga erishuv tomonga o'zgartira boradi. Ajdodlarimizning milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamoniylashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchidir. Ana shu insoniy burchlarning har

bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang - barang madaniy oqimlarini xosil qiladi, saqlab turadi. Shu nuqtai nazardan, xar bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy - milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiya mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy – pedagogik asoslari: Ped. Fan. Dok. ... yozilgan dis. – T.: 1998. – 156 b.
2. O'zbek pedagogikasi tarixi: A.Zunnunov taxrir ostida. – T.: Sharq, 2005. – 272 b.
3. Quronov M., Qurbonniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika – T.: RTM, 2002. – 134 b.
4. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): Ped.fanl.nomz. diss. – T.: 2000. – 155 b.

